Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

AMIR TEMUR VA NAPOLEON: XIX ASR NEMIS TARIXSHUNOSLIGIDA BUYUK SARKARDALAR KONSEPSIYASI

Doniyorjon Jaloldin o'g'li Nizomitdinov*
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi
✉ doniyornizomitdinov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotda nemis tarixshunosligida Sohibqiorn Amir Temur hamd Napoleon Bonapartning shaxsiy sifatlari va faoliyati qiyosiy tahlil etilishi yoritilga, Shuningdek, nemis tarixshunosligida aynan Napoleon hamda Amir Temurning taqqslanishi, buning omillari va sabablari bayon etilgan.

Kalit so'zlar

Nemis tarixshunosligi, Amir Temur, Napoleon Bonapart, "Geografiya, tarix, davlat va harbiy san'at arxivi" jurnali, Abdulla Oripov.

DOI: 10.5281/zenodo.21835545

KIRISH

Tarixda ko'plab buyuk sarkardala ko'plab topiladi, ammo ularning ayrimlari jahongashta sarkarda sifatida e'tirof etilgan. Aleksandr Makadonskiy, Yuliy Sezar, Gannibal, Muhammad (s.a.v), Chingizxon, Amir Temur hamda Napoleon Bonapart kabi tarixiy shaxslarning nomlari butun dunyo tarixchi olimlari-yu oddiy xalq e'tiborini tortib kelgan. Ularning shaxsiy hayotidan tortib, harbiy-siyosiy faoliyati, boshqaruv siyosati borasida ular hayotlik chog'idan boshlab to hozirgi kungacha o'rganilib tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ularning davlat boshqaruvidagi islohotlari, harbiy tamoyillari, diplomatik siyosatlari hozirgi kunga qadar o'zining ahamiyatini yo'qotmasdan kelmoqda. Shuningdek, bugungi globallashuv va jahon integratsiyalashuvi tezlashayotgan zamonda davlatlar o'rtasidagi turli mintaqalar uchun kechayotgan ziddiyatli kurashlarni yechimini izlashda ularning tarixiy merosini chuqur o'rganish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Buyuk sarkardalarni tarixiy tajribalarini o'rganish, qiyosiy tahlil etish borasida tarixchi olimlar tomonidan ko'plab tadiqot ishlari olib borilgan.

Yevropa tarixshunosligida Aleksand Makadonskiy, Amir Temur hamda Napoleon Bonapartning sarkardalik qobiliyatlari ko'plab tahlil etilgan. Shuningdek, nemis tarixshunosligida ham bu jarayon kuchli kechgan.

XIX asrda deyarli butun Yevropani birlashtirgan Napoleon Bonapart Yevropada o'ziga xos tartib yaratadi. Napoleonning siyosatini o'rganish boshlanadi. Bu jarayon nemis tarixshunosligida muhim o'rin tutadi. Napoleon hokimiyati ostida bo'lgan nemislar unga qarshu mustaqillik uchun kurasha boshlaydilar. Bu jarayonda uning siyosatini o'rganish hamda boshqa buyuk tarixiy sarkardalarning tarixiy tajribasini o'rganish hamda qiyosiy tahlil etish zaruriyatini vujudga keltiradi. Bu jarayon keyinchalik bir an'anaga aylanib qolganligini ko'rishimiz mumkin. Napoleon hokimiyatdan ag'darilgandan so'ng nemis yerlarini birlashtirish uchun harakat qilayotgan shaxslar Amir Temur hamda Napoleonning, Aleksandr Makadonskiy hamda Napaleonning faoliyatlarini tahlil etadilar.

Nemis nashrlarida Amir Temur hamda Napoleon faoliyatini qiyosiy tahlil etish borasida nemis nashrlarida maqolalar chop etila boshlaydi. Xususan, XIX asr nemis tarixshunoslik va sharqshunosligining yirik markazi Venada bosilib chiqadigan “Geografiya, tarix, davlat va harbiy san’at arxivi” jurnali nashrlarida Amir Temur hamda Napoleon Bonapartning faoliyati qiyosiy tahlil etilgan[1].

Ushbu maqola nashriyot tomonidan tayyorlangan bo‘lib, unda Amir Temur va Napoleon shaxsiyatlarining qiyosiy tahlili keyinchalik yanada kuchayib borishi qays etilgan. Maqolada bu haqida shunday deyiladi: “Tarix bizga o‘zlarining tashabbuskorligi, xarakteri va despotik tabiati, intilishlari, faoliyati hamda taqdiri haqida ishonchli ma’lumotlar qoldirgan barcha fotihlar orasida Napoleon Bonapart va Timur katta jihatlarda ham kichik jihatlarda ham eng ko‘p umumiy xususiyat va o‘xshashliklarga ega. Shu darajadaki, kelajakdagi jahon fotihlarining Plutarxiga ularni Makedoniya podshosi va Rim imperatori bilan qiyoslagandan ham ko‘ra yanada muvaffaqiyatli va aniqroq tarzda yonma-yon qo‘yib taqqoslash vazifasi qoladi”[2. 373].

Fransuz sharqshunosi Jozeph de Guignesning Amir Temur shaxsi tavsifidan olingan fikrlari asosida Napaleon Bonnapartga qiyoslanadi. Unga ko‘ra, ikki buyuk sarkarda jahon fotihi bo‘lganligi, davlat qonunlarini yaratgan va siyosiy islohotlar o‘tkazgan hukmdor bo‘lganligi, Amir Temur tomonidan “Tuzuklar” tuzigan bo‘lsa, Napoleon tomonidan “Kodeks” tuzilganligi qayd etiladi.

Maqolada Guignesning Amir Temurga shaxsiy fazilatlari va faoliyati borasida quyidagi so‘zlari keltirilib, ushbu tavsif Napaleonga ham tadbiq etilsa bo‘ladi deb keltiriladi: “U suhbatlarida hazil-mutoyiba qilinishini ham, shafqatsizliklar haqida gapirilishini ham yoqtirmas edi. U jasur kishilarni yuksak qadrlardi. Faol, hushyor, charchoqni bilmaydigan, baquvvat inson edi. U voqealarni sog‘lom va oqilona baholay olar, boshqalarning undan yashirmoqchi bo‘lgan sirlarini ham anglab yetardi. Ilm ahli va adabiyot namoyandalarini, shuningdek, san’atda alohida iste’dod ko‘rsatgan kishilarni nihoyatda e’zozlardi. O‘z davlatida sodir bo‘layotgan barcha voqealardan to‘liq xabardor edi. Shu bilan birga, u o‘z niyatlarini yashira oladigan, tez g‘azablanadigan, shafqatsiz va yuksak hokimiyatni qo‘lga kiritishga intiluvchi shaxs edi. Deguignes o‘zining “Hunlar tarixi” asarida (IV jild, 74-bet) Amir Temur haqida bergan ushbu tavsifni xuddi shuningdek Napoleonga ham tatbiq etish mumkin. Ikkalasi ham nafaqat buyuk istilochilar, balki qonun chiqaruvchi va davlat boshqaruvini tartibga soluvchi hukmdorlar ham edilar”[2.373].

Maqolada ikki buyuk sarkarda taqqoslanar ekan, ularning olimlar va adiblar homiysi bo‘lib, alohida hurmat ko‘rsatganliklari hamda yillik nafaqalar tayinlanganliklari borasida fikr bildiriladi. Shuningdek, Amir Temur Eronning Sheroz shahrida mahshur fors shoiri Hofiz bilan, Bursada turk shoiri Ahmadiy bilan ilmiy va adabiy suhbatlar olib borganligi, Napaleon ham huddi Amir Temurdek Veymarda Kristof Martin Viland, Berlinda esa, tarixchi Yohannes Myuller bilan uchrashganliklari yoziladi. Napoleon Bonapartnng fe’l-atvori Amir Temurnikiga nisbatan farq qilganliklarini qayd etiladi. Amir Temur Napoleonga nisbatan birmuncha bag‘rikeng bo‘lganligi yoziladi. Amir Temurning Hofiz Sheroziy hamda Ahmadiy bilan bo‘lgan suhbatlari jarayonini bunga dalil sifatida qayd etiladi[2.374]. Bu XIX asr boshlarida nemis tarixshunosligida Amir Temur obrazining ijobiy talqin etilganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Amir Temur ham, Napaleon ham o‘zlarining tafakurlaridan cheksiz hukmronlik g‘oyalarining pishirib yurganliklari qayd etiladi. Bu jarayaon ularning poytaxtlariga qaytishi bilanoq, yana yangi urushlarga tayyorgarlik ko‘rib, navbatdagi harbiy yurushlarni rejalashtirishga kirishganliklari bilan izohlanadi.

Amir Temur hamda Napaleon Bonapartning shaxsiy sifatlari va faoliyatining o‘xshahliklari taqqoslanar ekan, Napaleon Bonapart Sohibqironning uslubini puxta o‘rgangandek taassurot uyg‘otganligini, turli murojatnomalar yozishda Temurning uslubini o‘zlashtirishga intilganligi haqila yoziladi[2.377]. Ikki buyuk davlat arbobi o‘rtasida xarakter, dunyoqarash, urush va tinchlik davridagi siyosati hamda faoliyatida shunchalik ko‘p o’xshashliklar mavjud bo’lishiga qaramay, ularning hayot y’lining yakuni mutlaqo boshqacha bo’lganligi ham maqolada o’z aksini topgan. Bu borada shunday deyiladi: “Amir Temur umrining oxirigacha g‘alabalar va shon-shuhrat bilan bezangan baxtli zabtkor sifatida yashadi va shuhrat cho‘qqisida bu dunyoni tark etdi. Napoleon esa, aksincha, omad ham, o‘zining baxti ham uni tark etgan, taxtdan qulagan, surgun qilingan va quvg‘inda umr kechirgan hukmdor bo‘ldi. U sharafli o‘lim o‘rniga shon-sharafdan mahrum, xorlikdagi hayotni tanladi”[2.377]. Napoleonning taqdiri surgun qilingan Qadimgi Rim imperiyasi imperatori Maroboduus kabi fojeali yakun top-

galigi qayd etiladi.

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Napaleon Bonnapart Amir Temur shaxsini ham alohida o‘rgangan. Napoleon tarixni chuqur o‘rgangan. Tarixchi Shuhrat Ergashev o‘zining “Uch buyuk fransuz” nomli asarida Napaleonning barcha xalqlar tarixini, harbiy san’atlar tarixini, buyuk hukmdorlar harbiy yurishlari tarixini o’rganganligini yozib, kitoblarni shunchaki qarab chiqmasdan chuqur o’rganganligini yozadi[3.53].

Nemis tarixshunosligida Amir Temur hamda Napoleonning qiyosiy taqqoslab o‘rganilishiga sabab bo‘lgan omillar ham mavjud. Birinchidan, Napaleon urushlarining Germaniya tarixiga ko’rsatgan katta ta’siri. Ikkinchdan, Napoleon faoliyatiga tarixiy baho berish zaruriyati. Uchinchidan, buyuk davlatchilik harakatining o’ganish zaruriyati. Shuningdek, eng asosiysi Sharqda ulkan markazlashgan davlatga asos solgan Sohibqiron faoliyatini markazlashgan nemis milliy davlatini tashkil etishga intilayotgan kuchlar uchun o’rganish zaruriyati.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bugungi kunda ham jahon tarixshunosligida Amir Temur hamda Napoleon faoliyati to‘g‘risida chuqur ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Bu ikki buyuk sarkarda adabiyotda ham mustahkam o‘rin egallab kelmoqda. Xususan, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning Napoleon haqidagi she’ri ham buning yorqin isbotidir.

“Vaterloda xato qildi Npoleon –
Jahongirning qayti shu kun omadi.
Mana o’tsa hamki necha bir zamon,
U haqida gapirmagan odam qolmadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Archiv für Geographie, Historie, Staats- und Kriegskunst. Neunter Jahrgang. – Wien. gedruckt und im Verlage bey Anton Strang. – 620 s.

2. Archiv für Geographie, Historie, Staats- und Kriegskunst. Neunter Jahrgang. – Wien. gedruckt und im Verlage bey Anton Strang. – S. 373.

3. Ergashev Sh. Uch buyuk fransuz. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2016. – 144 b.